


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**J.Sultonov**

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili ..... 224

**M.A.Boltaboyev**

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati ..... 234

**Sh.B.Jumayeva**

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat ..... 239

**M.R.Sodiqova**

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) ..... 244

**A.X.Nigmatov**

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari ..... 251

**M.B.Nazirov**

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri ..... 257

**B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev**

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi ..... 260

**M.A.Maxmudov**

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati ..... 266

**I.B.Boxodirov**

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi ..... 270

**J.Sultonov**

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi ..... 273

**O.B.Nizomiddinov**

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) ..... 279

**O.H.Jaynarov**

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) ..... 284

**O.M.Normatov**

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida ..... 289

**Y.A.Shukurillayev**

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari ..... 293

## ILMIY AXBOROT

**Z.X.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar ..... 297

**X.J.Isomiddinov**

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari ..... 300

**M.B.Nazirov**

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri .... 304



**YANGI O'ZBEKISTONDA JINOYAT VA JAZO SOHASIDAGI LIBERALLASHUVNI  
TADQIQ ETISHDAGI FALSAFIY YONDASHUVLAR**

**ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ЛИБЕРАЛИЗМА В ОБЛАСТИ  
ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**PHILOSOPHICAL APPROACHES TO THE RESEARCH OF LIBERALISM IN THE FIELD  
OF CRIME AND PUNISHMENT IN NEW UZBEKISTAN**

Oxunova Zilolaxon Xasanovna 

Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvning ijimoiy-antropolologik tamoyillari va xususiyatlari, nazariy-metodologik asoslari, zaruriyati, bugungi kundagi dolzarb masala ekanligi tadqiq qilingan hamda ushbu jarayonda uning ijimoiy-falsafiy, axloqiy, ma'nnaviy, huquqiy tasnifi va Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются социально-антропологические принципы и характеристики, теоретико-методологические основы, необходимость и актуальность либерализации в сфере преступлений и наказаний, анализируются ее социально-философская, нравственно-духовная и правовая классификация, а также специфические особенности этого процесса.*

**Abstract**

*The article examines the socio-anthropological principles and characteristics, theoretical and methodological foundations, necessity, and relevance of liberalization in the field of crime and punishment, and analyzes its socio-philosophical, moral, spiritual, and legal classification and specific features in this process.*

**Kalit so'zlar:** jinoyat, jazo, jinoyatning tarixiy taraqqiyoti, jinoyat huquqi, jinoyatchilikka barham berish, liberallashuv, ijimoiy-falsafiy, axloqiy, ma'nnaviy, huquqiy, ijimoiy-antropolologik xususiyatlar.

**Ключевые слова:** преступление, наказание, историческое развитие преступности, уголовное право, ликвидация преступности, либерализация, социально-философские, моральные, духовные, правовые, социально-антропологические характеристики.

**Key words:** crime, punishment, historical development of crime, criminal law, elimination of crime, liberalization, socio-philosophical, moral, spiritual, legal, socio-anthropological characteristics.

**KIRISH**

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarda har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakkantirish muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar eng, avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratib, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalaridagi integratsiya borasidagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari, kvalifikatsiya qilishning umumiyligi nazariy masalalari I.V.Andreev, N.A.Babiy, L.D.Gauxman, A.A.Gertszenzon, V.V.Kolosovskiy, A.V.Korneeva, V.N.Kudryavtsev, N.F.Kuznetsova, B.A.Kurinov, V.Navitskiy, V.Navitskiy, K.V.Obrajieva, N.I.Panova, A.I.Raroga, R.A.Sabitova, V.Y.Tatsiya, S.A.Tararuxina, A.A.Tolkachenko va boshqa tadqiqotchilar tomonidan atroficha o'rganilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberalllashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar quyidagicha:

Aksioligik yondashuv. Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari hamda xalqaro huquq me'yorlarining o'quvchilar tomonidan qadriyat sifatida qabul qilinishini anglatadi. Binobarin, inson omilining o'zi qadriyat, shu bois uning haq-huquqlari, erkinliklari kafolati bo'lgan milliy va xalqaro huquqiy me'yorlarga ham qadriyat tarzida yondashish mantiqan to'g'ridir. Qolaversa, har bir qonun, huquqiy-ijtimoiy me'yorlar asosida muayyan millatning ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi axloqiy g'oyalarga asoslanadi. Bu esa o'z-o'zida shaxsnинг huquqiy masalalar, qonunlarga munosabatining negizini axloqiy-qadriyatli yondashuvtashkil etishini anglatadi. O'quvchilarning jinoyat va jazoga doir huquqiy bilimlarni rivojlantirishda dastlab ularda inson omili, uning haq-huquq, erkinlik va manfaatlarini qadriyat sifatida baholash orqali munosabatda bo'lismi axloqiy tamoyillarning asosi ekanligi haqidagi tushunchani shakllantirish talab etiladi. Buning natijasida o'quvchilar nafaqat o'z huquqlari, erkinliklarini anglaydi, balki o'zgalar hamda jamiyatning manfaatlarini poymol qilmaslik, ularga humatsizlik ko'rsatmaslik, har bir fuqaroning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, obro'siga ziyon etmaslik zarurligini tushunib etadi. Zero, diniy-islomiy g'oyalalar shaxsnинг sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, obro'siga ziyon etkazish gunoh ekanligini ifodalasa, umuminsoniy tamoyillarga ko'ra shunchaki axloq (odob namunalarining yig'indisi) sanaladi. O'quvchilar har bir ijtimoiy-huquqiy masalalarda "o'zganing huquq hamda erkinliklari boshlangan joyda mening huquq va erkinliklarim tugaydi", degan pozitsiyada turishga o'rganishlari kerak.

Mazmunli yondashuv. Huquq fanlari bo'yicha metodik ta'minotning yaratilishi, har bir mavzu bo'yicha axborotli va grafik ma'lumotlarning shakllantirilishi, ularning to'liq bo'lismiga erishish o'quvchilar tomonidan ham nazariy, ham amaliy xarakterdagi huquqiy bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bunda turli xarakterdagi o'quv mashg'ulotlari, ya'ni, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarga taqdim etilayotgan, ular tomonidan mustaqil o'zlashtirilayotgan bilimlar bir-birini to'ldirib, mustahkamlab, boyitib borishiga erishish muhimdir. Pedagoglar o'zlarining kasbiy mahorati, kompetentligidan kelib chiqqan holda har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadini aniq belgilash, unga to'liq erishish imkonini beruvchi o'quv vazifalarini to'g'ri belgilash, o'quv materiallarining o'quvchilarda kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish darajasida o'quv topshiriqlariga ko'chirish imkoniyatiga ega bo'lislari zarur. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Innovatsion yondashuv. Mavjud sharoitda innovatsiyalardan foydalanish, yangi innovatsiyalarni yaratish nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida dolzarb masalaga aylangan. Ingliz tilida "yangilik kiritish" ma'nosini anglatuvchi innovatsiya tushunchasining amaliy tatbiqi u qo'llanilayotgan sohada muayyan yangiliklarni yaratish orqali sifat va samaradorlik jihatidan yangi bosqichga erishish bilan belgilanadi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim amaliyotiga innovatsiyalar uch yo'l bilan, ya'ni, 1) tayyor xorijiy innovatsiyalarni o'zlashtirish; 2) ularni takomillashtirish; 3) yangi innovatsiyalarni yaratish orqali tatbiq etiladi.

Muammoli yondashuv. Odatda shaxslar, ayniqsa, yoshlar muammolardan cho'chishadi. Aslida muammolar va ularning echimini topishga intilish shaxsnинг intellektual va irodaviy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Zero, muammolar ustida ishlash shaxsda fikrlash, fikrlaganda ham samarali fikrlash, oqilonha echimni topishga intilish ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi. Ularning rivojlanishi evolyusion ravishda qobiliyatga aylanib boradi. Shu bois o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir huquqiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida ularni huquqiy mavzulardagi muammoli vaziyatlarni hal qilishga jalb etish pedagogik jihatdan o'rinnlidir. Bunda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda keys-stadi, "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi", "Baliq skeleti", "Klaster", "Qarorlar daraxti" kabi texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, ushbu texnologiyalar o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, echim bo'yicha bir necha variantni ilgari surish, ular orqasidan eng oqilonha echimni topishga o'rgatadi.

Refleksiv-korreksion yondashuv. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, "refleksiv" tushunchasi "faoliyatni tahlili o'rganish", "orqa qaytib, faoliyatni tahlil qilish", "korreksiya" atamasi esa "tuzatish", "to'g'rilash" kabi holatni anglatadi. O'quvchilarning jinoyat va jazoga doir huquqiy bilimlarni rivojlantirish da ularninghuquqiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati, xususan, o'quv materialari mohiyatini anglash, ta'limiy topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish orqali mustaqil baholashi o'z mohiyatiga ko'ra refleksivlik sanaladi. Bu jarayonda erishilgan yutuq va yo'l

**ILMIY AXBOROT**

qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Ma'lumki, refleksiv tahlil natijasiga muvofiq shaxs erishilgan yutuqlarni boyitish yoki yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha reja ishlab chiqadi. Shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha rejaning ishlab chiqilishi uning bu yo'lda tashkil etgan faoliyat korreksion xarakterga egaligini anglatadi. Refleksiv-korreksion yondashuv asosida o'quvchilar ham huquqiy kompetentlikni o'zlashtirishga qaratilgan shaxsiy harakatlarini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir huquqiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida pedagoglar tomonidan ham refleksiv-korreksion faoliyatni tashkil etish orqali huquqiy jihatdan kasbiy tayyorligini baholashga muvaffaq bo'ladi.

**XULOSA**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizdagi yangilanish va islohotlar haqida so'z ketganda jahon hamjamiyati "Yangi O'zbekiston" degan iborani tilga olmoqda. Bu yurtimizdagi o'zgarishlarga berilgan munosib bahodir. Ayniqsa, mamlakatimizdagi mana shunday ijobjiy o'zgarishlar dunyo hamjamiyatida O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni yanada oshirib, uning xalqaro maydonidagi nufuzini tobora mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada dunyo miqyosidagi mana shunday e'tirofni chuqur his etib, jamiyat taraqqiy etishini maqsad qilgan holda yurtimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yoshlarimizni bilimli, salohiyatli shaxs etib shakllantirish va tarbiyalash katta ahamiyatga egadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўқиз йиллигига багишиланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeenvning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2020>
2. Қодиров Э. Ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш масалалари // – Тошкент.: Республика Маънавият тарғибот маркази, Тошкент давлат юридик университети. 2017. – -Б. 19.
3. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Т.: F.Гуломномидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 2016. –Б. 82-85.
4. Марчук В. Методологические основы квалификации преступления. Автореферат дисс. на соискание ученой степени доктора юридических наук. Минск, 2022
5. Утемуратов М. Давлат ва хуқуқ тарихида жиноят ва жазо масалалари. Ўқув қўлланма. - Нукус: ҚДУ, 2020. –Б. 14.